

JUMABEKOVA Zilola Saitmurod qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: HAYDAROV Mirodil
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrasasi dotsenti (PhD)

ILMGA BAG'ISHLANGAN HAYOT

A LIFE DEDICATED TO KNOWLEDGE

ЖИЗНЬ, ПОСВЯЩЕННАЯ НАУКЕ

Annotatsiya: Bu maqola, sakkizinchi asrda yashab o'tgan musulmonlar olamiga fiqh ilmini rivojlanishiga katta yordam bergan, ixtilofli fihiy va aqidaviy masalalarni yechishga o'z ijtihodlari ila ko'maklashgan olim Abu Hanifa (rh.) ning qilgan ishlari va ularning shogirdlari, hayot yo'li haqida yoritilgan bo'lib, bugungi kundagi bir qancha diniy masalalarda ularning fikrlarini inobatga olgan holda yechim topilmoqda, shuningdek bu faqih olimning ilmiy tajribasini, ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlari, olimning ilmiy qarashlarini, zamonaviy yoshlarga ibrat sifatida yozilgan.

Kalit so'zlar: Abu Hanifa, ijti hod, ixtilof, mazhab, mazhabboshi, sahoba, tobein, sunniy, qiyos, hadis.

Annotation: This article highlights the works and life path of the scholar Abu Hanifa (rh.), who lived in the eighth century and made a great contribution to the development of the science of fiqh (Islamic jurisprudence) in the Muslim world, assisting in resolving controversial jurisprudential and theological issues through his ijtihad (independent reasoning). Solutions to a number of modern religious issues are found by taking his views into account. Furthermore, the scholarly experience of this jurist, the teacher-student relationship, and the scholar's scientific views are presented as an example for modern youth.

Keywords: Abu Hanifa, ijtihad, ikhtilaf, madhhab, founder of a madhhab, sahaba, tabi'un, Sunni, qiyas, hadith.

Аннотация: Данная статья освещает труды и жизненный путь ученого Абу Ханифы (рх.), жившего в VIII веке, который внёс огромный вклад в развитие науки фикха в мусульманском мире и своими иджтихадами способствовал решению спорных вопросов в области фикха и акыды. И сегодня решения по ряду религиозных вопросов находятся с учётом его мнений. Также научный опыт этого ученого-факиха, его отношения

с учениками, научные взгляды представлены в качестве примера для современной молодёжи.

Ключевые слова: Абу Ханифа, иджтихад, ихтиляф, мазхаб, основатель мазхаба, сахабы, табиины, суннит, кыяс, хадис.

KIRISH

Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit ibn Zutiy hanafiylilik mazhabi asoschisi, Ko'fa shahrida tavvalud topgan. Manbalarda No'mon ibn Sobit Ko'fa ziyolilari bilan ilm davrasida voyaga yetgan, otasidan unga katta boylik meros qolgan bo'lib, barcha boyligini ilm yo'lida sarf qilgani ta'kidlangan. No'mon ibn Sobit tarixiga ikkita sharaflı nom beriladi: Abu Hanifa, ya'ni to'g'ri yo'lda turuvchilar rahnamosi, Imomi A'zam, ya'ni buyuk imom [1:42]. Bu olim yoshlik davrida Qur'oni karimni yod oladi va uning ma'nolarini tushunishga intiladi.

Hozirgi kunda hanafiy mazhabi butun sunniy olami tan olgan mazhablar sirasiga kiradi, shuningdek boshqa mazhabboshilar ham Abu Hanifa (rh.) haqida iliq munosabatda bo'lganlar. Imomi Shofiyning "Har bir fiqhni o'rganayotgan o'quvchi Abu Hanifaning boqimandalaridir", Imom Molikning Abu Hanifa bilan turli ilmiy munozaralar xususida bahs qilgandan so'ng "Albatta, u buyuk faqihdir", deya aytgan gaplari bunga yorqin misol bo'la oladi. Imom Abu Hanifa o'z davrining yetuk bilim egasi, aql-zakatda tengi yo'q olimlardan edi. Har bir masalaga yechim topishda aniq hujjat va dallilarga tayanib, chuqur tahlil qilib, so'ng javob berar edi. Shu tufayli Hanafiy mazhabida huquqiy muamolar juda sodda ko'rinishda yechim topgan.

Imomi A'zamning ustozlari sonining adadi 4000 ga yetib, ulardan 8 tasi sahoba, 39 tasi tobein bo'lgani tarixiy kitoblarda qayd etilgan. Xatib Bag'dodiy Asad ibn Amrdan rivoyat qilishicha Imom Abu Hanifa bir kechada bir rakat namozda Qur'onni to'laligicha qiroat qilgan va tunlari ibodat qilishni odat tusiga kirgizgan hatto uning tundagi yig'isini eshitib qo'shnilarining unga rahmi kelardi. Umri davomida yetti ming marta Qur'onni xatm qilgan deb aytiladi [1:75].

Kufa shahri, o'z davrining ilm tarqatgan markazlaridan biri bo'lgan va Iroqning boshqa shaharida yashamay, faqat Ko'faning o'zida yashagan sahobalar sonini manbalarda qayd etilishicha bir ming besh yuzta deb qayd etgan. Eng birinchi fiqh ustozlaridan biri Hammud ibn

Sulaymon bo'lib u kishidan fiqh va kalom ilmlarini o'rganadi. Abu Hanifa 40 yoshga yetganlarida uning ustozlari vafot etadilar. Umumiy holda 18 yil u kishi bilan fiqh ilmini sir asrorlarini o'rganadi. U kishi fiqhni tartibli usul holatda keltirib, barcha dunyoviy masalalarning yaxshi va yomon ko'rinishlardagi holatlarini yuzga chiqarib, sog'lom aqida asosida ta'limotini shakillantirgan edi.

U kishi tobeinlardan ilm olgani haqida sunniylikdagi barcha olimlar biladi. Ulardan: Sha'biy, Ikrima (Ibn Abbosning shogirdi), Nofe (Ibn Umarning shogirdi), [2:58] kabi olimlar bunga misol. Abu Hanifa ustozlarini juda yaxshi ko'rib ilm o'rgangan, odob va xushu bilan ilm tarqatgan mashhur olimlarimizdan biri hisoblanadi. Eng e'tiborli jihatlaridan biri, mana shunday olimlarning hayotini o'rganish hozirgi kundagi yoshlarning ustozlariga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi va ilmga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, asosiysi Hanafiy mazhabi asoschisi haqidagi qimmatli tushunchalarga ega bo'lishadi.

ASOSIY QISM

Abu Hanifaning shogirdlari nafaqat uning fiqhini yoyishda balki aqida borasidagi kitoblarini ham bugungi kungacha yetib kelishigacha xizmat qilgan. Uning shogirdlari aqida borasidagi botil oqimlarga qarshi raddiyalar berishgan. Ko'plab bahslar va munozaralar olib borishgan. Abu Hanifa umumiy hisobda o'ttiz yil dars bergan, hattoki uning shogirdi bo'lish uchun dunyoning narigi chekkasidan odamlar kelishgan va u zotning qo'lidan ko'plab ilm peshvolari yetishib chiqib turli mamlakatlarga tarqalib ketishgan. U olim fatvo masalarida juda ehtiyotkor bo'lib, bu haqida: "agar ilm zo'ye bo'lib qolishidan qo'rqmaganimda, hech kimga fatvo bermas edim. Chunki foydasi ularga, gunohi menga bo'ladi, der edi" [3:28].

Abu Hanifa ustozining o'rniga o'rinbosar bo'lgandan boshlab, umrining oxirigacha izdoshlariga fiqh ilmini o'rgatadi. Ulardan to'rt nafar mujtahid shogirdlari eng mashhuri hisoblanadi: Ular Zufar, Abu Yusuf, Muhammad va Hasan ibn Ziyod (rh.) lar, ustozining fiqhini kitob qilib, mazhabini boshqa o'lkalarga yoyilishiga katta hissa qo'shishadi. Tadqiqotchilar u zotning shogirdlarining soni 800 nafardan oshishini aytishsa-da, ulardan 28 nafari qozilik, 6 nafari fatvo berishga munosib, 2 nafari: Abu Yusuf va Zufarlar qozi va muftiylarga adab berish darajasida edi.

Abu Hanifa (rh.) ning asarlari bizning davrimizgacha bazilari yetib kelgan bo'lib, "Fiqhul akbar" eng taniqli aqidaga oid asarlaridan biri sanaladi. Bundan tashqari, "Kitobul-olim val-mutaalim", "Kitobur-Risola", "Ma'rifatul-mazohib" [5:33] nomli kitoblari hozirgi kunda turli tillarga tarjima qilingan.

Abu Hanifa 150/767-yilda yetmish yoshida o'zining diyori, Ko'fada vafot topadi. Ulamlarning faqih, Imomi A'zam (rh.) ning dunyodan ko'z yumgani haqida hamma mamlakatlarga tarqaladi, bu qayg'uli xabarni eshitgan Imomi Sho'ba (rh.) boshini quyi solib "istirijo" aytib¹ Allohdan mag'firat so'radi so'ngra boshini yuqoriga ko'tarib: "Ko'fa ahlidan ilmning ziyosi o'chdi. Endi ular unga o'xshashini ko'rmasalar kerak" [6:54] dedilar va oxirgi gaplarini yakunladilar, qachonki ular Abu Hanifani tilga olsalar uning haqqiga mag'firat so'rab duo qiladigan bo'ldi. U kishining o'limidan so'ng og'illariga bir qancha omonatlar topshirdi va u o'z haqqini ado etdi. Shundan bilish mumkinki, olimning vafot topishini boshqa ilm egalari bir musibat sifatida qaragan. Chunki olimning islom ahliga qilgan xizmatlarini hech qaysi fiqhshunos olim yoddan chiqarmaydi.

Hanafiy mazhabining bugungi kundagi o'rni beqiyos bo'lib, Dunyo aholisining yarmi shu mazhabboshiga ergashadi. Shuningdek, Hanafiy mazhabini boshqa sunniy vakillar ham hurmat ila e'tirof etganliklarini aytib o'tdik. Tarixga nazar solsak, bu mazhab hijriy 2-asrdan sharq va g'arb davlatlari orasida keng tarqaladi. Masalan, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Temuriylar, Shayboniylar, Boburiylar va Usmoniylar imperiyasi tomonidan bu rasmiy mazhab sifatida qabul qilindi, hattoki sud ishlarini ushbu mazhab asnosida olib boriladigan bo'ldi. Bundan ko'rinish turibdiki bu mazhab o'zining mo'tadilligi bilan ajralib turibdi. Abu Zahranning aytishicha: Abu Hanifaning ijtihodi va hadislarni o'rganishdagi tutgan yo'li, u yashagan muhitda ko'p qiyos qilingan va uning taqazosiga qarab qismlarga bo'lingan.

Olim faqat yon-atrofidagi bahs-munozaralarga e'tibor bermay kelajakdagi bir qancha islomiy savollarga javob bergan. "Kashfuz-zunun" muallifi Hoji Xalifa hanafiylik haqida quyidagi fikrni bildiradi: "To'rt mazhab ichida birinchi o'rinda turadigan va haqiqatga yaqin bo'lgani, Abu Hanifa (rh.) asos solgan mazhabdir, deya e'tirof etadi. Chunki bu mazhab boshqalarga nisbat ustunligi

¹ "Istirijo" aytilish – "Inna lillahi va inna ilayhi rojiun" deyish.

va savollarning ilmiy dalili kuchliligi bilan ajralib turadi. Hanafiy ulamosi Ali Qorining “Muxtasaru-l-viqoya” nomli asariga yozilgan “Niqoya” nomli sharhni o‘qigan kishi hanafiy mazhabida aytilgan har bir masalaning oyat va hadisdan dalili bor ekanligiga to‘la ishonch hosil qiladi.

Aqidaga oid yozgan kitobining tarixi ham o‘zgacha suratda bo‘lib, u kishi haddan oshgan toifalarga masalan: xavoriy va mo‘tazlalarga qarshi raddiyalar berish bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Abu Hanifa dindan chiqqan odamlarga isbotiy dalil keltirgan eng peshqadam va birinchi olimlardan edi. Bunga isbot qilib esa Imom Abdulqodir Bag‘dodiy o‘zining “Usulud-din” nomli kiobida shunday deydi: “Mazhabboshilar va faqihlar orasida birinchi o‘rinda turadigan mutakallim olimlar bu-Abu Hanifa va Shofiydir” deydi. Shuningdek Abu Hanifa qadariylarga raddiya o‘laroq bir kitob yozdi va uni “al-Fiqhul akbar”, deb nomladi. Imom Abu Hanifa (rh.) diniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham egallagan edi.

XULOSA

Imom Abu Hanifa, ilm dunyosida juda katta obro‘ga erishgan. Asosan shogirdlari bilan bo‘lgan suhbatlari, ilm yo‘lida tutgan o‘rni, va ta‘lim berishdagi harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abu Hanifa (rh.) aytadi: “Oldingizga kelgan odamga ilm haqida gapiring. Agar ilmga moyil inson bo‘lsa, har doim oldingizga ilm olish uchun keladi. Agar ilmga moyil bo‘lmasa ikkinchi marta oldingizga kelmaydi va sizning vaqtingizni olamaydi”, deydi. Bundan ko‘rish mumkinki, Imom Abu Hanifa birovlariga ilmini ko‘rsatish uchun emas balki bilmisizlikni oldini olish, xalqqa ma‘rifat yetkazish va zamonaviy tilda aytganda, savodsizlikni qisqartirish va Allohning roziligini topish uchun ilm olgan va keng yoyishga harakat qilgan.

Shuningdek bu olimning shogirdlariga bergan ilmini chuqur mulohaza qilib, mavzu ustida turli xil munozaralar olib borgan holda talabalarining ilmini mustahkam qolib kabi quygan. Imom Abu Hanifa (rh.) ni hozirgi kundagi ilm o‘rganayotgan yoshlarga uning nafaqat ilmini balki uning odob-axloqqa qanday rioya etishlarini, ilmga qanday mustahkam turishlarini, hayotining tarbiyaviy ahamiyatini ilm talabida yurgan insonlarga tatbiq qilish kerkak deb o‘ylayman. Bunday faqihlarni hayot yo‘lini tatbiq qilish bilan birgalikda yosh

avlodning olimlarning ilmiga bo‘lgan qiziqishlariga immunitet hosil qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saidjalolov S. Islomdagi mazhablar va oqimlar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012. – B. 42.
2. Mirxamidov O. Imomi A‘zam Abu Hanifaning Vasiyati Abi Xanifa Asari. Toshkent: Hilol nashr, 2019. – B. 75.
3. Oqilov S. Sunniylik ta‘limoti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – B. 125.
4. Aminov X., Primov S. Hanafiy fiqhi tarxi, manbalari va islohatlari. – Toshkent: Sahifa, 2024. – B. 393.
5. Tu‘lepov A. Islom va Aqidaparast oqimlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2013. – B. 357.
6. Muhammad Siddiq Minshaviy. Rosululloh (s.a.v.) ning to‘rt vorislari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2022. – B. 251.
7. <https://muslim.uz/uz/e/post/12326-hanafiy-mazhabi-va-hanafiylilikning-afzalliklari-abu-hanifaning-hayotlari?page=9&per-page=1> . (12.05.2025).